2026/08-09
№5(52-53)

ISSN 2791-3651

Молодой специалист

Google Scholar

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

Выпуск №5(52-53) 2026/08-09

Scientific Journal Impact Factor
TOGETHER WE REACH THE GOAL

zenodo

aerjan84@mail.ru
http://t.me/mspeskz
+7 705 724 97 69
Проспект Шәкәрім Құдайбердіұлы, д. 25/3
г. Нур-Султан, РК

ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

«Молодой специалист»

Выпуск №5(52-53) (август-сентябрь, 2026)

Свидетельство о постановке на
учет периодического печатного
издания, информационного
агентства и сетевого издания
Эл № KZ26VPY00048061
от 15 апреля 2022 г.

Главная цель журнала заключается в публикации оригинальных статей, преимущественно научного и научно-технического направления, предоставлении научной общественности, научно-производственным предприятиям, представителям бизнес-структур, а также студентам, магистрантам и докторантам вузов возможность знакомиться с результатами научных исследований и прикладных разработок по ключевым проблемам в области передовых технологий.

Задачи журнала состоят:

- в предоставлении ученым возможности публикации результатов своих исследований по научным и научно-техническим направлениям;
- достижении международного уровня научных публикаций журнала;
- привлечении внимания научной и деловой общественности к наиболее актуальным и перспективным направлениям научных исследований по тематике журнала;
- привлечении в журнал авторитетных отечественных и зарубежных авторов, являющихся специалистами высокого уровня.

Журнал размещается и индексируется на порталах eLIBRARY.RU и Google Scholar.

Молодой специалист
Young specialist
Жас маман
Yosh mutaxassis

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

ANDIJON VILOYATI BIR SATHDAGI TEMIR YO‘L KESISHMALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: XAVF USTUVORLIGI VA AVTOMATIK TO‘SISH QURILMALARINING TEXNIK-IQTISODIY ASOSLANISHI

Yo‘ldoshev Abduvosit Azizbek o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti, “Transport logistikasi” mutaxassisligi magistranti
yoldashevabduvosit234@gmail.com

Annotatsiya: *Andijon viloyatidagi bir sathdagi temir yo‘l kesishmalarining holatini baholash, xavfi yuqori uchastkalarni aniqlash hamda qo‘riqlanmaydigan kesishmalarni avtomatik to‘sish qurilmalari bilan jihozlashning texnik-iqtisodiy samaradorligini asoslash. Metod: viloyatning 51 ta kesishmasi (30 ta qo‘riqlanadigan, 21 ta qo‘riqlanmaydigan) bo‘yicha uchastka kesimidagi transport oqimi, 2024–2026-yillardagi yo‘l-transport hodisalari statistikasi va «Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston» temir yo‘li orqali kutilayotgan yuklama tahlil qilindi; xavf ekspozitsiyasi indeksi hisoblandi; uch qurilma variantining kapital va ekspluatatsion xarajatlari uch stsenariy bo‘yicha solishtirildi. Andijon 1–Jalolobod uchastkasi umumiy ekspozitsiyaning 45 foizini tashkil etib, birinchi ustuvorlikka ega. Yuk hajmi yiliga 5–20 mln tonna bo‘lganda sutkasiga qo‘shimcha 8–31 ta poyezd qatnovi kutiladi. 21 ta kesishmani jihozlash uchun kapital xarajat 1 743–3 591 mln so‘m; bazaviy stsenariyda qoplanish muddati 2,4–5,7 yil bo‘lib, natija bir hodisaning zarar bahosiga sezgir. Har bosqichda yettitadan kesishmani qamrab oluvchi uch bosqichli modernizatsiya rejasi taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *bir sathdagi kesishma, temir yo‘l, harakat xavfsizligi, avtomatik shlagbaum, xavf ekspozitsiyasi, texnik-iqtisodiy asoslash, Andijon viloyati.*

DEVELOPMENT STRATEGY FOR RAILWAY LEVEL CROSSINGS IN ANDIJAN REGION: RISK PRIORITISATION AND TECHNICAL-ECONOMIC JUSTIFICATION OF AUTOMATIC BARRIER DEVICES

Yoldoshev Abduvosit
Master’s Student, “Transport Logistics”
Andijan State Technical Institute
yoldashevabduvosit234@gmail.com

Abstract: ***To*** *assess the condition of level crossings in the Andijan region, identify the highest-risk railway sections, and justify the technical and economic feasibility of equipping unguarded crossings with automatic barrier systems.* ***S****ection-level traffic flows, accident statistics for 2024–2026 (16 accidents, including 5 fatalities), and the expected traffic generated by the China–Kyrgyzstan–*

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

Uzbekistan railway were analysed for 51 crossings (30 guarded and 21 unguarded). A risk exposure index was calculated, and the capital and operating costs of three types of equipment—an automatic barrier, the UZP level-crossing barrier device, and a bollard system—were compared under three scenarios. The Andijan 1–Jalolobod section accounts for 45% of the total risk exposure and ranks first in terms of risk. At a freight volume of 5–20 million tonnes per year, an additional 8–31 train movements per day are expected. The estimated capital cost of equipping the 21 unguarded crossings ranges from 1,743 to 3,591 million UZS, while the payback period under the base scenario is estimated at 2.4–5.7 years and is sensitive to the assumed economic loss per accident. A three-stage modernisation plan, covering seven crossings at each stage, is proposed.

Key words: *level crossing, railway, traffic safety, automatic barrier, risk exposure, technical-economic justification, Andijan region.*

СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫХ ПЕРЕЕЗДОВ В АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ: ПРИОРИТИЗАЦИЯ РИСКОВ И ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ АВТОМАТИЧЕСКИХ ШЛАГБАУМОВ

Юлдошев Абдувосит Азизбек угли
Магистрант по специальности «Транспортная логистика»
Андижанский государственный технический институт
yoldashevabduvosit234@gmail.com

Аннотация *Целью исследования является оценка состояния железнодорожных переездов в Андижанской области, выявление железнодорожных участков с наиболее высоким уровнем риска, а также технико-экономическое обоснование оснащения неохраняемых переездов автоматическими шлагбаумными устройствами. Для 51 переезда (30 охраняемых и 21 неохраняемого) были проанализированы участковые транспортные потоки, статистика дорожно-транспортных происшествий за 2024–2026 годы (16 происшествий, в том числе 5 со смертельным исходом), а также ожидаемый объём перевозок в связи с вводом железной дороги Китай–Кыргызстан–Узбекистан. Рассчитан индекс рисковой экспозиции, а также проведено сравнение капитальных и эксплуатационных затрат для трёх типов оборудования: автоматического шлагбаума, устройства заграждения переезда УЗП и боллардной системы — по трём сценариям. Наибольшая доля совокупной рисковой экспозиции (45 %) приходится на участок Андижан-1–Джалалабад, который занимает первое место по уровню риска. При объёме грузовых перевозок 5–20 млн тонн в год ожидается увеличение количества поездопроходов на 8–31 в сутки. Расчётные капитальные затраты на оснащение 21 неохраняемого переезда составляют 1 743–3*

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

591 млн сумов, при этом срок окупаемости по базовому сценарию оценивается в 2,4–5,7 года и зависит от принятого размера экономического ущерба от одного происшествия. Предлагается трёхэтапный план модернизации, предусматривающий оснащение семи переездов на каждом этапе.

Ключевые слова *железнодорожный переезд, железнодорожный транспорт, безопасность движения, автоматический шлагбаум, рисковая экспозиция, технико-экономическое обоснование, Андижанская область.*

1. KIRISH

Transport-logistika tizimini rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu «Transport to‘g‘risida»gi Qonun va Prezidentning 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-sonli qarorida o‘z ifodasini topgan [1, 2]. Shu yo‘nalishdagi eng yirik loyihalardan biri — Qashqar–Torugart–Makmal–Jalolobod–Andijon yo‘nalishidagi «Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston» (XQO‘) temir yo‘lidir. Uning qurilishi 2024-yil 27-dekabrda boshlangan [3]; rejalashtirilgan yakunlanish muddati 2030-yil bo‘lib, qurilishni ikki yil ertaroq tugatish imkoniyati ham e’lon qilingan [4]. Yuk hajmi dastlabki bosqichda yiliga 5–8 mln tonna, uzoq muddatda 13–15 mln tonna deb baholanadi; Yevrosiyo taraqqiyot bankining 2026-yilgi hisobotiga ko‘ra, quvvat yakka izli variantda 7 mln tonna, ikki izli variantda 20 mln tonnagacha yetishi mumkin [4, 5].

Koridor O‘zbekiston hududiga Andijon viloyati orqali kirib keladi, shu bois viloyatdagi temir yo‘l va avtomobil yo‘llari kesishmalariga tushadigan yuklama ortadi. Bir sathdagi kesishmalar esa har ikki transport turi uchun eng xavfli joylardan biridir. Yevropa Ittifoqida 2024-yilda temir yo‘l halokatlarida o‘lganlarning 25,5 foizi (750 kishidan taxminan 190 nafari) kesishmalarga to‘g‘ri kelgan [6]; 2010-yillarda esa yiliga 300 ga yaqin kishi kesishmalardagi to‘qnashuvlarda halok bo‘lgan [7, 8]. AQShda har yili 200 dan ortiq kishi shu sababli vafot etadi, 2023-yil uchun dastlabki ma’lumotlarda 248 ta o‘lim qayd etilgan [9, 10]. Hodisalarning asosiy sababi, odatda, yo‘l harakati qatnashchilarining xatti-harakatidir [8].

Andijon viloyatida 6 ta temir yo‘l uchastkasida 51 ta kesishma mavjud bo‘lib, ularning 21 tasi (41 foiz) navbatchi xodim va signalizatsiyasiz, ya’ni qo‘riqlanmaydigan holatda [11, 12]. Muallifga ma’lum bo‘lgan manbalarda viloyat kesishmalarining uchastkalar bo‘yicha xavf ustuvorligi aniqlanmagan, koridor yuklamasi miqdoriy baholanmagan va avtomatik to‘sish qurilmalari variantlarining iqtisodiy samaradorligi mahalliy sharoitda solishtirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi - Andijon viloyati bir sathdagi temir yo‘l kesishmalarining holatini baholash, xavfi yuqori uchastkalarni aniqlash va qo‘riqlanmaydigan kesishmalarni modernizatsiya qilishning texnik-iqtisodiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqish. **Vazifalar:** (1) kesishmalar va transport oqimini uchastkalar bo‘yicha tahlil qilish; (2) xavf ekspozitsiyasi asosida uchastkalarni ustuvorlash; (3) XQO‘ koridori keltirib chiqaradigan qo‘shimcha poyezd qatnovini baholash; (4) uch qurilma variantining xarajat va samaradorligini solishtirish; (5) bosqichma-bosqich modernizatsiya rejasini taklif etish.

2. MATERIALLAR VA METODLAR

Kesishmalar soni va turi «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ Yo‘l xo‘jaligi bo‘limining texnik ma’lumotlaridan [12], hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Qo‘qon mintaqaviy temir yo‘l uzeli Harakat xavfsizligi bo‘limi va Ichki ishlar vazirligi Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati statistikasidan (2024-yil – 2026-yil 1-may) [11, 13] olindi. Transport oqimi 6 ta uchastka bo‘yicha Andijon 1 stansiyasining Harakat xavfsizligi va Yo‘l xo‘jaligi bo‘limlari xodimlari bilan hamkorlikda sutkalik sanash orqali aniqlandi [11] (yuk transporti, yengil avtomobil, avtobus va marshrutka,

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

mototsikl va moped, kajavali mototsikl). Uchastka bo‘yicha keltirilgan qiymatlar shu uchastkadagi barcha kesishmalar bo‘yicha jami oqim sifatida talqin qilindi.

Qurilmalarning kapital va ekspluatatsion xarajatlari 2025-yil O‘zbekiston bozori narxlari va ishlab chiqaruvchilar (Siemens, CAME, FAAC) mahsulot ma’lumotlari asosida baholangan [14]. Har bir variant asosiy qurilma bilan birga svetofor, elektron axborot taxtasi, IP-kamera va poyezdni aniqlash datchiklarini o‘z ichiga oladi.

Uchastkalarni ustuvorlash uchun xavf ekspozitsiyasi indeksi kiritildi:

$$I_j = U_j \cdot (F_j / N_j), \quad (1)$$

bunda U_j — j-uchastkadagi qo‘riqlanmaydigan kesishmalar soni; F_j — uchastkadagi sutkalik jami transport oqimi (barcha turlar bo‘yicha); N_j — uchastkadagi kesishmalar soni. Indeks qo‘riqlanmaydigan kesishmalardan o‘tuvchi taxminiy sutkalik oqimni ifodalaydi. Hisobda uchastka oqimi uning kesishmalari orasida tekis taqsimlanadi deb qabul qilindi.

XQO‘ koridori bo‘yicha yuk hajmi Q (t/yil) ning yuk poyezdlari qatnoviga ekvivalentini hisoblash uchun quyidagi ifoda qo‘llandi:

$$n_{yuk} = Q / (365 \cdot q), \quad n = 2 \cdot n_{yuk}, \quad (2)$$

bunda q — yuk poyezdining o‘rtacha netto massasi (shartli 3 500 t, loyiha ma’lumotlari bo‘yicha aniqlashtirilishi lozim); n_{yuk} — yuk bilan qatnovchi poyezdlar soni (sutkasiga); n — jami qatnov. Yuk asosiy yo‘nalishda yuk bilan, teskari yo‘nalishda bo‘sh tashiladi va oqim yil davomida tekis deb qabul qilindi.

Yillik foyda, qoplanish muddati va 10 yillik sof natija quyidagicha hisoblandi:

$$B = N_0 \cdot s \cdot r \cdot Z + T, \quad (3)$$

$$PP = K / (B - E), \quad S_{10} = 10 \cdot (B - E) - K, \quad (4)$$

bunda N_0 — yillik hodisalar soni (2024–2025-yillar o‘rtachasi, 6,5); s — hodisalarning qo‘riqlanmaydigan kesishmalarga to‘g‘ri keladigan ulushi (0,72) [11, 13]; r — qurilma o‘rnatilgandagi hodisalar kamayishi: passiv kesishmani chiroqli signalizatsiya bilan jihozlashda 70 %, avtomatik to‘siq bilan jihozlashda 83 % [15, 16]; Z — bir hodisaning iqtisodiy zarari (tibbiy yordam, infratuzilma va transport vositasini tiklash, tirbandlik, huquqiy xarajatlar), bazaviy qiymat 300 mln so‘m, oraliq 150–450 mln so‘m [14]; T — kesishmada to‘xtab qolish vaqtining qisqarishidan tejash; K — kapital xarajat; E — yillik ekspluatatsion xarajat amortizatsiyasiz (texnik xizmat, masofaviy operator, elektr va aloqa). Qo‘riqlanmaydigan kesishmalarda navbatchi xodim yo‘q bo‘lgani uchun xodimlar ish haqini tejash foydaga kiritilmadi. Diskontlash qo‘llanmadi.

Uch stsenariy ko‘rib chiqildi: S1 — konservativ (r = 70 %); S2 — bazaviy (r = 83 %); S3 — S2 va vaqt tejash bo‘yicha T = 1 000 mln so‘m/yil (muallifning dastlabki bahosining pastki chegarasi [14]). Bundan tashqari S2 uchun zarar bahosi Z = 150 va 450 mln so‘m bo‘lgandagi sezgirlik tekshirildi.

3. NATIJALAR

Viloyatdagi 51 ta kesishmaning 30 tasi qo‘riqlanadigan, 21 tasi (41,2 %) qo‘riqlanmaydigan (1-jadval). Asaka–Shahrixon va Andijon 2–Paxtaobod uchastkalarining barcha kesishmalari (jami 10 ta) qo‘riqlanmaydi. Uchastkalar bo‘yicha jami sutkalik oqim 502 681 birlikni tashkil etadi; uning 73,5 foizi ikki uchastka — Marg‘ilon–Andijon 1 (179 916) va Andijon 1–Jalolobod (189 754) hisobiga. Yuk transporti ulushi o‘rtacha 9,9 % bo‘lsa-da, Andijon 2–Paxtaobod uchastkasida 40,1 %, Asaka–Shahrixonda 15,5 % ga yetadi.

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

1-jadval

Temir yo‘l uchastkalari bo‘yicha kesishmalar va sutkalik transport oqimi [11, 12]

Uchastka	**Jami**	**Qo‘riqlanadigan**	**Qo‘riqlanmaydigan**	**Qo‘riqlanmaydigan ulushi, %**	**Sutkalik oqim, birlik**	**Yuk transporti ulushi, %**
Marg‘ilon–Andijon 1	9	8	1	11,1	179 916	8,5
Andijon 1–Jalolobod	17	11	6	35,3	189 754	7,9
Uchqo‘rg‘on –Post 331 km	10	7	3	30,0	61 907	9,2
Asaka–Shahrixon	7	0	7	100,0	16 144	15,5
Andijon 2–Paxtaobod	3	0	3	100,0	20 265	40,1
Savay–Honobod	5	4	1	20,0	34 695	9,5
Jami	**51**	**30**	**21**	**41,2**	**502 681**	**9,9**

Viloyat kesishmalarida 2024-yilda 7 ta, 2025-yilda 6 ta va 2026-yil 1-mayigacha 3 ta hodisa qayd etilgan; jami 16 ta hodisaning 5 tasi (31 %) o‘lim bilan yakunlangan [13]. Hodisalarning 72 foizi qo‘riqlanmaydigan kesishmalarga to‘g‘ri kelgan [11, 13], holbuki bunday kesishmalar umumiy sonning 41 foizini tashkil etadi. 2026-yilning dastlabki to‘rt oyidagi 3 ta hodisa yillik hisobga o‘tkazilganda taxminan 9 taga to‘g‘ri keladi; tanlanma kichik bo‘lgani uchun bu tendensiya sifatida emas, ehtiyotkorlik bilan kuzatuv sifatida qaralishi lozim.

(1) formula bo‘yicha hisoblangan ekspozitsiya indeksi 2-jadval va 1-rasmda keltirilgan. Andijon 1–Jalolobod uchastkasi (I = 66 972) jami ekspozitsiyaning (148 883) 45,0 foizini beradi va ikkinchi o‘rindagi uchastkadan 3,3 barobar yuqori. Buning sababi shundaki, bu uchastkada qo‘riqlanmaydigan kesishmalar soni (6 ta) ham, kesishmaga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha oqim (11 162) ham yuqori. Marg‘ilon–Andijon 1 uchastkasida faqat bitta qo‘riqlanmaydigan kesishma bor, biroq unga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha oqim eng katta (19 991).

2-jadval

Uchastkalarning xavf ekspozitsiyasi indeksi

O‘rin	**Uchastka**	**Qo‘riqlanmaydigan kesishmalar, U**	**Kesishmaga o‘rtacha oqim, F/N**	**Indeks I**
1	Andijon 1–Jalolobod	6	11 162	66 972
2	Andijon 2–Paxtaobod	3	6 755	20 265
3	Marg‘ilon–Andijon 1	1	19 991	19 991
4	Uchqo‘rg‘on–Post 331 km	3	6 191	18 572
5	Asaka–Shahrixon	7	2 306	16 144
6	Savay–Honobod	1	6 939	6 939

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651



1-rasm. Uchastkalar bo'yicha xavf ekspozitsiyasi indeksi I

(2) formula bo'yicha hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, koridor yiliga 5 mln tonna yuk tashiganda sutkasiga o'rtacha 3,9 ta yuk bilan qatnovchi poyezd (jami 7,8 ta qatnov), 15 mln tonnada 11,7 ta (23,5 ta qatnov), 20 mln tonnada esa 15,7 ta (31,3 ta qatnov) qo'shimcha harakat yuzaga keladi (3-jadval). Ya'ni koridor to'liq ishga tushganda kesishmalardan o'tuvchi poyezdlar soni sutkasiga 8–31 taga ortadi.

3-jadval

Koridor yuk hajmiga mos qo'shimcha poyezd qatnovi (q = 3 500 t) [4, 5]

Stsenariy	**Yillik hajm, mln t**	**Sutkalik hajm, t**	**Yuk bilan poyezd, sutka**	**Jami qatnov, sutka**
Dastlabki bosqich (quyi)	5	13 699	3,9	7,8
Dastlabki bosqich (yuqori)	8	21 918	6,3	12,5
Uzoq muddat	15	41 096	11,7	23,5
Ikki izli quvvat	20	54 795	15,7	31,3

Uch variant — avtomatik shlagbaum, UZP (temir yo'l kesishmasini to'sish qurilmasi) va Ballard tizimi (avtomatik va statik ustunlar) — solishtirildi (4-jadval). UZP paketi eng arzon (bitta kesishma uchun o'rtacha 83 mln so'm), Ballard tizimi eng qimmat (171 mln so'm). 21 ta kesishma uchun kapital xarajat 1 743–3 591 mln so'm, yillik ekspluatatsion xarajat amortizatsiyasiz 452–530 mln so'm.

4-jadval

Qurilma variantlarining xarajatlari (2025-yil narxlarida, mln so'm)

Variant	**1 kesishma: kapital (o'rtacha)**	**1 kesishma: yillik ekspluatatsiya**	**21 kesishma: kapital**	**21 kesishma: yillik ekspluatatsiya**
Avtomatik shlagbaum	77–115 (96)	22,1	2 016	464
UZP to'sish qurilmasi	63–103 (83)	21,5	1 743	452
Ballard tizimi	131–211 (171)	25,3	3 591	530

Hodisalar kamayishi hisobiga oldini olinadigan zarar S1 stsenariyda yiliga 3,3 ta hodisa (983 mln so'm), S2 da 3,9 ta hodisa (1 165 mln so'm) ni tashkil etadi (5-jadval). Bazaviy stsenariyda (S2) qoplanish muddati UZP uchun 2,4 yil, avtomatik shlagbaum uchun 2,9 yil,

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

Ballard uchun 5,7 yil; 10 yillik sof natija mos ravishda 5 395, 4 996 va 2 760 mln so‘m. Konservativ S1 stsenariyda qoplanish 3,3–7,9 yilga uzayadi. Vaqt tejash hisobga olingan S3 stsenariyda muddat 1,0–2,2 yilgacha qisqaradi. Sezgirlik tahlili natijani zarar bahosi belgilashini ko‘rsatdi: Z = 150 mln so‘m bo‘lganda hech bir variant 10 yil ichida qoplanmaydi, Z = 450 mln so‘m bo‘lganda qoplanish 1,3–2,9 yilga tushadi.

5-jadval

Stsenariylar bo‘yicha qoplanish muddati (yil) va 10 yillik sof natija (mln so‘m), 21 ta kesishma

Stsenariy	**Yillik foyda B, mln so‘m**	**Avtomatik shlagbaum**	**UZP**	**Ballard**
S1: r = 70 %, Z = 300	983	3,9 / 3 171	3,3 / 3 570	7,9 / 934
S2 (bazaviy): r = 83 %, Z = 300	1 165	2,9 / 4 996	2,4 / 5 395	5,7 / 2 760
S3: S2 + T = 1 000	2 165	1,2 / 14 996	1,0 / 15 395	2,2 / 12 760
S2, Z = 150	583	17,0 / –830	13,3 / –431	68,5 / –3 067
S2, Z = 450	1 748	1,6 / 10 823	1,3 / 11 222	2,9 / 8 586

4. MUHOKAMA

Natijalar xavfning uchastkalar bo‘yicha keskin notekis taqsimlanganini ko‘rsatadi. Andijon 1–Jalolobod uchastkasi ekspozitsiyaning deyarli yarmini beradi va koridor Andijonga Jalolobod (Jalal-Abad) tomonidan kirib kelishi rejalashtirilgani [3, 4] uchun aynan shu yo‘nalish kelajakdagi yuklama nuqtai nazaridan ham birinchi navbatga qo‘yilishi asosli. Aksincha, Asaka–Shahrixon uchastkasida barcha 7 ta kesishma qo‘riqlanmasa-da, oqim kichik (indeks 16 144), shu sababli u keyingi bosqichga qoldirilib, oraliq chora sifatida ko‘rinish masofasini ta’minlash va belgilarni yangilash tavsiya etiladi. Andijon 2–Paxtaobod uchastkasida yuk transporti ulushi 40,1 % bo‘lgani uchun (og‘ir transportning to‘xtash masofasi uzun, kesishmani bo‘shatish vaqti ko‘p) bu uchastka indeksdan yuqori e’tiborga loyiq.

Xalqaro tajriba passiv kesishmani avtomatik to‘siq bilan jihozlash hodisalarni taxminan 83 foizga kamaytirishini ko‘rsatadi [15, 16]. Shu bilan birga qurilma o‘rnatilgach ham xavf butunlay yo‘qolmaydi: Yevropa Ittifoqida 2016-yilda kesishmalardagi to‘qnashuvlarning 60 foizi faol kesishmalarda yuz bergan, sabab ko‘pincha haydovchining to‘siq tushayotgan paytda o‘tishga urinishi [7]. Shlagbaum yo‘lning to‘liq kengligini to‘smasligi sababli haydovchi uni aylanib o‘tishi mumkin, kutish vaqti uzayganda esa signalga rioya qilish pasayadi [16]. Bu ikki holat UZP kabi qatnov qismini to‘liq to‘suvchi qurilmalar, kesishmadan o‘tish vaqtini qisqartirish va qoidabuzarliklarni foto-video qayd etish (IP-kameralar) zarurligini asoslaydi.

Iqtisodiy natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish kerak. Birinchidan, foyda asosan oldini olingan hodisalar zararidan iborat: Z = 300 mln so‘m bo‘lganda barcha variantlar 10 yil ichida qoplanadi, Z = 150 mln so‘m bo‘lganda esa qoplanmaydi. Shu sababli Z qiymati rasmiy hisobotlar asosida aniqlashtirilishi kerak. Ikkinchidan, kesishmalarda navbatchi xodim yo‘q bo‘lgani uchun xodimlar ish haqini tejash foydaga kiritilmagan; qo‘riqlanadigan 30 ta kesishmada avtomatlashtirishning tejamkorligi alohida tadqiqot mavzusidir. Uchinchidan, vaqt tejash (T) kesishma darajasida hisoblanmagan, shu bois asosiy xulosalar S1–S2 stsenariylariga tayanadi. Odam hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning ijtimoiy qiymati (16 ta hodisaning 5 tasi o‘lim bilan tugagan) Z ga faqat qisman kiritilgan; to‘liq ijtimoiy baholash qurilmalar foydasini oshirishi mumkin.

Qurilmalar funksional jihatdan bir-birini to‘ldiradi: UZP shlagbaum tushirilgandan so‘ng qatnov qismini to‘liq to‘sadi, Ballard esa asosan piyoda va xizmat yo‘laklarini transportning kirib kelishidan himoya qiladi. Shu sababli 5-jadvaldagi solishtirish har bir qurilma paketini mustaqil baholaydi; keyingi bosqichda «shlagbaum», «shlagbaum + UZP», «shlagbaum + Ballard»

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

kombinatsiyalarini solishtirish lozim. Hozirgi hisobga ko‘ra UZP paketi eng arzon va tez qoplanadi, Ballard tizimi esa eng qimmat, shuning uchun uni piyodalar oqimi yuqori kesishmalarda qo‘shimcha chora sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Ekspozitsiya indeksi va koridor yuklamasiga tayangan holda har bosqichda yettitadan kesishmani qamrab oluvchi uch bosqichli reja taklif etiladi. 1-bosqich (1–2 yil): Andijon 1–Jalolobod (6 ta) va Marg‘ilon–Andijon 1 (1 ta) uchastkalari. 2-bosqich (3–5 yil): Andijon 2–Paxtaobod (3 ta), Uchqo‘rg‘on–Post 331 km (3 ta) va Savay–Honobod (1 ta). 3-bosqich (5–10 yil): Asaka–Shahrixon (7 ta) hamda barcha 51 kesishmani yagona monitoring va intellektual boshqaruv tizimiga ulash. Har bir bosqichning kapital xarajati avtomatik shlagbaum variantida 672, UZP variantida 581 va Ballard variantida 1 197 mln so‘m.

Hodisalar tanlanmasi kichik (16 ta), 72 foizli ulush ishonchli intervalga ega emas. (2) Transport oqimi uchastka darajasida berilgan va kesishmalar orasida tekis taqsimlangan deb olingan; kesishma darajasidagi sanash va poyezdlar soni bilan indeks aniqlashtirilishi kerak. (3) Hodisalar kamayishi koeffitsiyentlari xorijiy (asosan AQSh) ma’lumotlariga tayanadi, «qo‘riqlanmaydigan» kesishma esa har doim ham «passiv» kesishmaga teng emas. (4) Narxlar 2025-yil bozor narxlari bo‘lib, diskontlash va valyuta kursi o‘zgarishi hisobga olinmagan. (5) Koridor yuklamasi shartli massa va tekis oqim farazlariga asoslangan.

REFERENCES

O‘zbekiston Respublikasining «Transport to‘g‘risida»gi Qonuni. — Toshkent: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-sonli «O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

3. Construction of China-Kyrgyzstan-Uzbekistan railway launched // Gazeta.uz, 30.12.2024. URL: https://www.gazeta.uz/en/2024/12/30/railway/

4. Progress on the China–Kyrgyzstan–Uzbekistan Railway, Some Challenges Remain // The Diplomat, July 2026. URL: https://thediplomat.com/2026/07/progress-on-the-china-kyrgyzstan-uzbekistan-railway-some-challenges-remain/

5. China-Kyrgyzstan-Uzbekistan railway freight potential estimated at up to 20 million tons annually // AKIpress, 10.09.2026. URL: https://akipress.com/news:918235

6. Eurostat. Railway safety statistics in the EU. Statistics Explained, 2025 (ma’lumotlar 2025-yil dekabr holatiga). URL: https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained

7. European Commission. Road Safety Thematic Report — Railway level crossings. — Brussels, 2021. URL: https://road-safety.transport.ec.europa.eu/system/files/2021-07/road_safety_thematic_report_railway_level_crossings_tc_final.pdf

8. European Union Agency for Railways (ERA). Safety at level crossings: taqdimot. — Belgrade, 21.11.2019. URL: https://www.transport-community.org/wp-content/uploads/2019/12/Mr-Eksler-Safety-at-level-Crossings-ERA.pdf

9. Federal Railroad Administration. Highway-Rail Grade Crossing Incidents, Fatalities and Injuries (2.08). U.S. DOT ochiq ma’lumotlar bazasi. URL: https://data.transportation.gov/d/bda5-32at

10. Operation Lifesaver. Collisions & Fatalities by State (FRA 2023 yil dastlabki statistikasi asosida). URL: https://oli.org/about-us/news/statistics/collisions-by-state

11. «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ Qo‘qon MTU Harakat xavfsizligi bo‘limining 2023–2026-yillarga oid statistik ma’lumotlari. — Qo‘qon, 2026 (shaxsiy arxiv, ruxsat bilan foydalanilgan).

12. «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ Yo‘l xo‘jaligi bo‘limi. Andijon viloyatidagi 51 ta temir yo‘l kesishmasiga doir texnik ma’lumotlar: ichki hisobot. — Toshkent, 2025.

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

13. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi. Andijon viloyati bo‘yicha yo‘l-transport hodisalari statistikasi, 2022–2026: rasmiy ma’lumot. — Toshkent, 2026.

14. Yo‘ldoshev A.A. Andijon viloyati avtomobil yo‘llari va temir yo‘llarining bir sathda kesishmalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish: magistrlik dissertatsiyasi. — Andijon: ADTI, 2026.

15. Ogden B.D. Railroad-Highway Grade Crossing Handbook. Revised Second Edition. FHWA-SA-07-010. — Washington: FHWA, 2007.

16. Federal Railroad Administration. Grade Crossing Toolkit: Automatic gates. URL: https://gradecrossingtoolkit.fra.dot.gov/Elib/Document/283

Молодой специалист
Young specialist
Жас маман
Yosh mutaxassis

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

O‘ZBEKISTON TASHQI SAVDO TEMIR YO‘L MARSHRUTLARINING XARAJAT VA VAQT SAMARADORLIGINI QIYOSIY BAHOLASH: UMUMLASHGAN TRANSPORT XARAJATI YONDASHUVI

Baxritdinov Umidjon Urmanovich
Toshkent davlat transport universiteti
sba151226@gmail.com

Annotatsiya: *O‘zbekistonning temir yo‘lga asoslangan tashqi savdo marshrutlarini xarajat va vaqt bo‘yicha, yuk qiymatini hisobga oluvchi yagona ko‘rsatkich asosida solishtirish. Metod: janubiy, shimoliy, g‘arbiy va sharqiy yo‘nalishlardagi 12 ta marshrut bo‘yicha masofa, yetkazib berish muddati va 20–22 t yukni tashishning o‘rtacha xarajati muallif maqolasidan olindi; solishtirma ko‘rsatkichlar (doll./km, sent/t·km, km/sutka) hisoblandi; xarajat va vaqtning masofa hamda dengiz/parom bo‘g‘inlari soniga bog‘liqligi eng kichik kvadratlar usulida baholandi; jo‘natma qiymati 20, 100 va 300 ming dollar, vaqt qiymati sutkasiga 0,05–0,6 foiz bo‘lgan uch yuk sinfi uchun umumlashgan xarajat hisoblandi. Xarajat modeli (R^2 = 0,75) bo‘yicha masofaga bog‘liq bo‘lmagan qism jo‘natmaga taxminan 1 576 dollar, masofa stavkasi 0,29 doll./km, har bir dengiz yoki parom bo‘g‘ini esa qo‘shimcha 921 dollar va 4,1 sutka; vaqt modeli o‘zgaruvchanlikning 93 foizini tushuntiradi (bazaviy tezlik ≈ 442 km/sutka). Riga, Minsk va Varshava yo‘nalishlari modeldagidan 560–820 dollar arzon, Saraxs va Xorgos orqali marshrutlar esa qimmatroq. Umumlashgan xarajat bo‘yicha reyting yuk qiymatiga bog‘liq: arzon yukda Riga, o‘rta va qimmat yukda Minsk yo‘nalishi birinchi o‘rinda. Kaspiy va Qora dengiz orqali marshrutlar barcha sinflarda raqobatbardosh emas: Eron–Turkiya orqali quruqlik marshrutiga nisbatan jo‘natma uchun 450–650 dollar qimmat va 5,5 sutka uzoq. Chegara, terminal va qayta yuklash xarajatlarini qisqartirish ustuvorliklari taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *temir yo‘l transporti, tashqi savdo marshruti, umumlashgan transport xarajati, vaqt qiymati, qayta yuklash, transport koridori, O‘zbekiston.*

COMPARATIVE COST–TIME EFFICIENCY ASSESSMENT OF UZBEKISTAN’S RAIL-BASED FOREIGN TRADE ROUTES: A GENERALISED TRANSPORT COST APPROACH

Bakhritdinov Umidjon Urmanovich
Tashkent State Transport University
Tashkent, Uzbekistan
sba151226@gmail.com

Abstract: *The study compares the cost and time efficiency of Uzbekistan’s rail-based foreign trade routes using a single indicator that accounts for the value of the cargo. Distance, transit time and the average cost of shipping a 20–22 t consignment were taken from the author’s dissertation for 12 routes in the southern, northern, western and eastern directions. Unit indicators (USD/km, US cents per tonne-km, km/day) were calculated; linear cost and time models*

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

with distance and the number of sea/ferry legs as explanatory variables were estimated by ordinary least squares; and a generalised cost was computed for three cargo classes (consignment value of 20, 100 and 300 thousand USD; time cost of 0.05–0.6% of value per day). The cost model (R^2 = 0.75) yields a distance-independent component of about USD 1,576 per consignment, a distance rate of USD 0.29/km and a premium of USD 921 and 4.1 days for each sea or ferry leg; the time model explains 93% of the variation (base speed ≈ 442 km/day). The northern routes to Riga, Minsk and Warsaw are USD 560–820 cheaper than predicted, whereas the routes via Sarakhs and Khorgos are more expensive. The ranking by generalised cost depends on cargo value: Riga leads for low-value cargo and Minsk for medium- and high-value cargo. Routes across the Caspian and Black Seas are uncompetitive in all classes: compared with the land route via Iran and Turkey they cost USD 450–650 more and take about 5.5 days longer per consignment. Priorities for reducing border, terminal and transhipment costs are proposed.

Key words: *rail transport, foreign trade route, generalised transport cost, value of time, transhipment, transport corridor, Uzbekistan.*

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТНО-ВРЕМЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫХ ВНЕШНЕТОРГОВЫХ МАРШРУТОВ УЗБЕКИСТАНА: ПОДХОД ОБОБЩЁННЫХ ТРАНСПОРТНЫХ ЗАТРАТ

Бахритдинов Умиджон Урманович
Ташкентский государственный транспортный университет
г. Ташкент, Узбекистан
sba151226@gmail.com

Аннотация *Цель исследования — сравнить железнодорожные внешнеторговые маршруты Узбекистана по стоимости и времени доставки с помощью единого показателя, учитывающего стоимость груза. По 12 маршрутам южного, северного, западного и восточного направлений из диссертации автора взяты расстояние, срок доставки и средние затраты на перевозку отправки массой 20–22 т. Рассчитаны удельные показатели (долл./км, цент/т·км, км/сут), методом наименьших квадратов оценены линейные модели затрат и времени в зависимости от расстояния и числа морских/паромных звеньев, определены обобщённые затраты для трёх классов груза (стоимость отправки 20, 100 и 300 тыс. долл.; стоимость времени 0,05–0,6 % в сутки). Модель затрат (R^2 = 0,75) даёт не зависящую от расстояния составляющую около 1 576 долл. на отправку, ставку 0,29 долл./км и надбавку 921 долл. и 4,1 сут за каждое морское или паромное звено; модель времени объясняет 93 % вариации (базовая скорость ≈ 442 км/сут). Северные маршруты на Ригу, Минск и Варшаву дешевле модельных на 560–820 долл., маршруты через Сарахс и Хоргос — дороже. Рейтинг по обобщённым затратам зависит от стоимости груза: для дешёвых грузов лидирует Рига, для средних и дорогих — Минск. Маршруты через Каспийское и Чёрное моря неконкурентоспособны во всех классах: по сравнению с сухопутным*

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

маршрутом через Иран и Турцию они дороже на 450–650 долл. и дольше примерно на 5,5 сут. Предложены приоритеты снижения пограничных, терминальных и перевалочных затрат.

Ключевые слова *железнодорожный транспорт, внешнеторговый маршрут, обобщённые транспортные затраты, стоимость времени, перевалка, транспортный коридор, Узбекистан.*

1. KIRISH

Dengizga bevosita chiqish imkoniga ega bo‘lmagan mamlakatlar uchun tashqi savdo yuklarini tashish xarajati va muddati eksportning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Jahon banki tadqiqotida bunday mamlakatlarda logistika xarajatlarining darajasini masofaning o‘zidan ko‘ra yetkazib berishning ishonchliligi, chegara va terminallardagi kutish vaqtlari ko‘proq belgilashi ko‘rsatilgan [1]. «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da transport-logistika tizimini rivojlantirish va tashqi savdo uchun qulay sharoit yaratish ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kiritilgan [2].

Yetkazib berish vaqti yuk egasi uchun alohida iqtisodiy resursdir. Djankov va hammualliflar bahosiga ko‘ra, yetkazib berishning har bir qo‘shimcha kuni savdo hajmini o‘rtacha 1 foizdan ko‘proq kamaytiradi [3]; Hummels va Schaur esa tranzitdagi bir kunning qiymati tovar qiymatining 0,6–2,1 foiziga teng boj ekvivalenti ekanini aniqlagan [4]. Maqolada Osiyo taraqqiyot banki ma’lumotlariga tayangan holda mintaqada yuk tashish vaqtini bir kunga qisqartirish savdo hajmini 5,7 foizgacha oshirishi mumkinligi qayd etilgan [5]. Demak, marshrutlarni faqat tarif yoki faqat muddat bo‘yicha solishtirish yuk egasining haqiqiy xarajatini to‘liq aks ettirmaydi.

CAREC dasturining koridorlar samaradorligini kuzatish mexanizmi chegarani kesib o‘tish vaqti, chegaradagi xarajat, koridor bo‘ylab o‘rtacha xarajat va o‘rtacha tezlikni alohida ko‘rsatkichlar sifatida baholaydi [6]. Jahon bankining Kaspiy dengizi orqali o‘tuvchi O‘rta koridor bo‘yicha hisobotida esa bu yo‘nalishda tashish muddatini 2030-yilgacha ikki baravar qisqartirish maqsadi qo‘yilgan [7]. Biroq muallifga ma’lum manbalarda O‘zbekistonning amaldagi tashqi savdo temir yo‘l marshrutlarini xarajat, vaqt va yuk qiymatini bir vaqtda hisobga olgan holda solishtiruvchi, shuningdek xarajatning masofaga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan qismlarini ajratib beruvchi miqdoriy baholar uchramadi.

O‘zbekistonning temir yo‘lga asoslangan tashqi savdo marshrutlarini umumlashgan transport xarajati asosida qiyosiy baholash va xarajatni kamaytirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash.Maqoladagi marshrut ma’lumotlarini yagona ko‘rinishga keltirib, solishtirma ko‘rsatkichlarni hisoblash; (2) xarajat va vaqtning masofa hamda dengiz/parom bo‘g‘inlariga bog‘liqligini baholash; (3) yo‘nalishlarga xos ustama va chegirmalarni aniqlash; (4) uch yuk sinfi uchun marshrutlarni umumlashgan xarajat bo‘yicha reytinglash; (5) xarajatni kamaytirish ustuvorliklarini asoslash.

2. MATERIALLAR VA METODLAR

Dastlabki ma’lumotlar muallif maqolasining «O‘zbekiston Respublikasining asosiy transport yo‘laklari va tashqi savdo marshrutlari» jadvalidan olindi [5]. Unda har bir marshrut bo‘yicha masofa (km), yetkazib berish muddati (sutka) va 20–22 t yukni (bitta jo‘natma) tashishning o‘rtacha xarajati (AQSh dollari) oraliq ko‘rinishida berilgan; hisobda oraliqlarning o‘rtacha qiymati olindi. Tahlilga xarajati ko‘rsatilgan 12 ta marshrut kiritildi. Kiyev orqali o‘tuvchi yo‘nalish 2022-yildan buyon amalda foydalanilmagani sababli, Amsterdam, Parij va Madrid manzillari esa xarajat ko‘rsatilmagani uchun chiqarib tashlandi; bir xil xarajatli takroriy manzillardan (Vilnyus, Buxarest) bittasi qoldirildi.

Har bir marshrut uchun dengiz yoki parom bo‘g‘inlari soni S aniqlandi. Oqtau–Boku va Turkmanboshi–Boku parom o‘tishlari hamda Poti portidan Qora dengiz orqali tashishni o‘z ichiga

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

olgan ikki marshrutda $S = 2$. Batumi–Trabzon oralig‘ida temir yo‘l bo‘lmagani uchun bu bo‘g‘in qayta yuklash bilan bajariladi, shu sababli Kavkaz–Istanbul marshrutida $S = 1$ deb olindi; qolgan marshrutlarda $S = 0$. Marshrutlar quyidagi solishtirma ko‘rsatkichlar bilan tavsiflandi:

$$c_j = C_j / L_j, \quad c'_j = 100 \cdot C_j / (m \cdot L_j), \quad v_j = L_j / T_j, \tag{1}$$

bunda C_j — j-marshrut bo‘yicha jo‘natmani tashish xarajati, doll.; L_j — masofa, km; T_j — yetkazib berish muddati, sutka; m — jo‘natma massasi (21 t); c_j — doll./km; c'_j — sent/t·km; v_j — yetkazib berish tezligi, km/sutka.

Xarajat va vaqtning tuzilmasini ajratish uchun quyidagi chiziqli modellar eng kichik kvadratlar usulida baholandi:

$$C_j = a + b \cdot L_j + d \cdot S_j + \varepsilon_j, \tag{2}$$

$$T_j = t_0 + k \cdot L_j + \tau \cdot S_j + \eta_j, \tag{3}$$

bunda a — masofaga bog‘liq bo‘lmagan xarajat (terminal operatsiyalari, chegara va hujjatlashtirish); b — masofa stavkasi, doll./km; d — bitta dengiz yoki parom bo‘g‘inining xarajat ustamasi; t_0 — masofaga bog‘liq bo‘lmagan vaqt; k — 1 km ga to‘g‘ri keladigan vaqt ($1/k$ — bazaviy tezlik); τ — bitta bo‘g‘inning vaqt ustamasi; ε_j, η_j — qoldiqlar. Qoldiqlar model hisobga olmagan yo‘nalishga xos omillarni (tarif siyosati, iz kengligi almashinuvi, tranzit davlatlar soni) ko‘rsatadi.

Vaqtni pul ko‘rinishiga keltirish uchun umumlashgan xarajat tushunchasidan foydalanildi [8]:

$$G_{jk} = C_j + \theta_k \cdot V_k \cdot T_j, \quad g_{jk} = G_{jk} / L_j, \tag{4}$$

bunda V_k — k-sinf jo‘natmaning qiymati; θ_k — vaqtning sutkalik qiymati (yuk qiymatiga nisbatan ulush). Uch sinf ko‘rib chiqildi: A — arzon yuk ($V = 20$ ming doll., $\theta = 0{,}05$ %/sutka, ya’ni yiliga taxminan 18 % kapital qiymati); B — o‘rta qiymatli yuk ($V = 100$ ming doll., $\theta = 0{,}3$ %/sutka); C — vaqtga sezgir qimmat yuk ($V = 300$ ming doll., $\theta = 0{,}6$ %/sutka, [4] dagi bahoning pastki chegarasi). Bitta dengiz/parom bo‘g‘inining umumlashgan ekvivalenti (2)–(4) dan kelib chiqadi:

$$\Delta G_k = d + \tau \cdot \theta_k \cdot V_k. \tag{5}$$

1-jadval

Tashqi savdo temir yo‘l marshrutlarining dastlabki va solishtirma ko‘rsatkichlari [5]

Kod	**Marshrut (manzil)**	***L*, km**	***T*, sutka**	***C*, doll.**	***S***	***c*, doll./km**	***c'*, sent/t·km**	***v*, km/sutka**
M1	Termiz – Mozori-Sharif	85	1,0	1 200	0	14,12	67,2	85
M2	Saraxs – Bandar-Abbos	3 065	6,5	2 500	0	0,82	3,9	472
M3	Saraxs – Mersin	4 208	13,0	3 150	0	0,75	3,6	324
M4	Saraxs – Istanbul – Sofiya (J)	5 156	14,5	4 150	0	0,80	3,8	356
M5	Beyneu – Moskva – Riga	4 781	12,0	2 150	0	0,45	2,1	398
M6	Beyneu – Moskva – Brest – Minsk	4 421	9,5	2 300	0	0,52	2,5	465
M7	Beyneu – Moskva – Brest – Varshava	4 800	11,0	2 400	0	0,50	2,4	436
M8	Beyneu – Moskva – Brest – Berlin	5 400	14,0	3 250	0	0,60	2,9	386
M9	Astraxan – Tbilisi – Batumi – Istanbul – Sofiya (K)	5 500	14,5	4 150	1	0,75	3,6	379
M10	Oqtau – Boku – Poti – Konstansa	4 558	20,0	4 600	2	1,01	4,8	228
M11	Turkmanboshi – Boku – Poti – Burgas	4 320	20,0	4 800	2	1,11	5,3	216
M12	Olmaota – Xorgos – Urumchi	1 850	5,5	2 900	0	1,57	7,5	336

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

Mozori-Sharif marshruti (85 km) solishtirma reytingdan chiqarildi, chunki uning xarajati deyarli to‘liq masofaga bog‘liq bo‘lmagan qismdan iborat; u modellarni baholashda saqlab qolindi.

3. NATIJALAR

Marshrutlarning masofa bo‘yicha solishtirma xarajati 0,45 doll./km (Riga) dan 1,57 doll./km (Urumchi) gacha, ya’ni 2,1–7,5 sent/t·km oralig‘ida o‘zgaradi (1-jadval). Mozori-Sharif yo‘nalishida bu ko‘rsatkich 14,1 doll./km (67 sent/t·km) ga yetadi: 85 km masofaga 1 200 dollar sarflanishi xarajat asosan chegara va terminal operatsiyalari bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Yetkazib berish tezligi Bandar-Abbos (472 km/sutka) va Minsk (465 km/sutka) yo‘nalishlarida eng yuqori, Kaspiy va Qora dengiz orqali o‘tuvchi marshrutlarda esa eng past (216–228 km/sutka).

(2) model bo‘yicha masofaga bog‘liq bo‘lmagan xarajat a = 1 576 doll., masofa stavkasi b = 0,291 doll./km, bitta dengiz/parom bo‘g‘inining ustamasi d = 921 doll.; barcha koeffitsiyentlar statistik ahamiyatli (2-jadval). Natijaga ko‘ra 4–5 ming km masofada ham jo‘natma xarajatining 52–57 foizi, 1 850 km (Urumchi) da esa qariyb 75 foizi masofaga bog‘liq bo‘lmagan qismga to‘g‘ri keladi. Bitta dengiz yoki parom bo‘g‘ini xarajat bo‘yicha taxminan 3 200 km qo‘shimcha temir yo‘l masofasiga teng. (3) vaqt modeli yanada aniq: bazaviy tezlik $1/k \approx 442$ km/sutka, har bir bo‘g‘in esa 4,1 sutka qo‘shadi, bu 1 800 km ga yaqin temir yo‘l masofasini bosib o‘tish vaqtiga teng (1-rasm).

2-jadval

Xarajat (2) va vaqt (3) modellarini baholash natijalari (n = 12; qavs ichida standart xato)

Ko‘rsatkich	**Xarajat modeli, *C***	**Vaqt modeli, *T***
Ozod had (a / t_0)	1 576 doll. (498)	1,0 sutka (1,4)
Masofa koeffitsiyenti (b / k)	0,291 doll./km (0,119)	0,00226 sutka/km (0,00033)
Dengiz/parom bo‘g‘ini (d / τ)	921 doll. (241)	4,1 sutka (0,66)
Bazaviy tezlik $1/k$	—	≈ 442 km/sutka
R^2 / tuzatilgan R^2	0,745 / 0,689	0,925 / 0,908



1-rasm. Jo‘natma xarajatining masofaga bog‘liqligi: uzluksiz chiziq — (2) model S = 0 da, uzuq chiziq — S = 2 da

Model qoldiqlari yo‘nalishlar bo‘yicha aniq farqlanadi (3-jadval). Shimoliy yo‘nalishdagi Riga, Minsk va Varshava marshrutlari modeldagidan 564–819 dollar arzon, Berlin esa model chizig‘iga yaqin. Saraxs orqali Eron va Turkiyaga chiquvchi marshrutlar qimmat: Mersin +348, Sofiya (J) +1 071 dollar. Xorgos orqali Urumchi marshruti +785 dollar ustamaga ega. Kaspiy dengizi orqali ikki marshrut model bilan deyarli mos keladi (–147 va +122 dollar), ya’ni ularning yuqori xarajati to‘liq dengiz/parom bo‘g‘inlari bilan tushuntiriladi. Vaqt bo‘yicha eng katta chetlanishlar Kavkaz–Istanbul marshrutida (–3,0 sutka) va Mersin yo‘nalishida (+2,5 sutka) kuzatiladi.

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

3-jadval

Marshrutlarning haqiqiy va model bo‘yicha xarajati hamda yetkazib berish muddati

Kod	Manzil	*C*, doll.	Model *C*, doll.	*ε*, doll.	*T*, sutka	Model *T*, sutka	*η*, sutka
M1	Mozori-Sharif	1 200	1 601	–401	1,0	1,2	–0,2
M2	Bandar-Abbos	2 500	2 469	+31	6,5	7,9	–1,4
M3	Mersin	3 150	2 802	+348	13,0	10,5	+2,5
The smaller the pellet size, the higher the thermal shock temperature: for the 8-5 mm fraction it is approximately one and a half times higher than the corresponding value for the 12.5-11.2 mm fraction. As residual moisture increases from 3 to 9.4 %, the shock temperature decreases by 100-200 °C.

Under production conditions, it is recommended to keep the heat carrier temperature in the first drying zone below 300 °C for non-fluxed pellets; for fluxed pellets it can be increased to 320-350 °C. The residual moisture of pellets during the transition from the drying zone to the preheating zone should not exceed 3-4 %, which prevents their destruction.

REFERENCES

1. Абзалов В.М., Горбачев В.А., Евстюгин С.Н., Клейн В.И., Леонтьев Л.И., Юрьев Б.П. Физико-химические и теплотехнические основы производства железорудных окатышей. Екатеринбург: Международный издательский центр, 2015. – 333 с.

2. Юсфин Ю. С., Пашков Н. Ф. Металлургия железа: учебник. М.: Академкнига, 2007. 464 с.

3. Вегман Е. Ф. Окускование руд и концентратов. М.: Металлургия, 1984. 256 с.

4. Лыков А. В. Теория сушки. 2-е изд. М.: Энергия, 1968. 472 с.

5. Бережной Н. Н., Губин Г. В., Демченко Л. А. Окомкование тонкоизмельченных концентратов железных руд. М.: Недра, 1971. 176 с.

6. ГОСТ 24765-81. Окатыши железорудные. Метод определения прочности на сжатие. М.: Издательство стандартов, 1981.

7. Коротич В. И., Фролов Ю. А., Бездежский Г. Н. Агломерация рудных материалов. Екатеринбург: УГТУ–УПИ, 2003. 400 с.

Молодой специалист
Young specialist
Жас маман
Yosh mutaxassis

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

KUCHLI ZILZILALAR SHAROITIDA UZLUKSIZ TEMIRBETON KO‘PRIK VA YO‘L O‘TKAZGICHLARNING SEYSMIK SHIKASTLANISH XUSUSIYATLARI VA ZILZILABARDOSHLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Shermuxamedov Ulugbek Zabixullayevich
DSc, Toshkent davlat transport universiteti “Ko‘priklar va tonnellar” kafedrasi professori
ulugbekjuve@mail.ru

Karimova Anora Baxtiyerovna
PhD, Toshkent davlat transport universiteti “Ko‘priklar va tonnellar” kafedrasi dotsenti
tillaboyeva_anora_karimova@mail.ru

Abdullayev Abduraxim Rovshan o‘g‘li
PhD, Toshkent davlat transport universiteti “Ko‘priklar va tonnellar” kafedrasi dotsenti
abdurahim.abdullayev.94@mail.ru

Annotatosiya: *Ushbu maqolada 2023-yilda Turkiyada sodir bo‘lgan kuchli zilzilalar ta’sirida uzluksiz temirbeton ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarning seysmik holati hamda konstruktiv elementlarida yuzaga kelgan shikastlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, ko‘prik tayanchlari, oraliq qurilmalari, tayanch qismlari va poydevorlarining zilzila vaqtida o‘zaro ta’siri, seysmik yuklarning konstruksiya bo‘ylab taqsimlanishi hamda zilzilabardoshlikka ta’sir etuvchi omillar ko‘rib chiqilgan. Turkiyadagi zilzilalar tajribasi, jumladan, Nurdağı viadugida kuzatilgan shikastlanishlar asosida konstruksiyalarning seysmik ta’sirga javob xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, grunt, poydevor, tayanch va oraliq qurilmalarning o‘zaro bog‘liq ishlashini hisobga olish, real zilzila akselerogrammalaridan foydalanish, seysmik izolyatsiya tizimlari va tayanch qismlarining samarali parametrlarini tanlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarning seysmik xavfsizligini oshirish, hisoblash usullarini takomillashtirish hamda kuchli zilzilalar sharoitida konstruksiyalarning ishonchliligini ta’minlash bo‘yicha muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *uzluksiz temirbeton ko‘prik, yo‘l o‘tkazgich, zilzila, seysmik ta’sir, zilzilabardoshlik, konstruktiv shikastlanish, ko‘prik tayanchi, oraliq qurilma, poydevor, seysmik izolyatsiya, real zilzila yozuvlari, Nurdağı viadugi*

Молодой специалист
Young specialist
Жас маман
Yosh mutaxassis

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

SEISMIC DAMAGE CHARACTERISTICS OF CONTINUOUS REINFORCED CONCRETE BRIDGES AND OVERPASSES UNDER STRONG EARTHQUAKES AND ISSUES IN IMPROVING THEIR EARTHQUAKE RESISTANCE

Shermukhamedov Ulugbek Zabikhullaevich
DSc, Professor of the Department of “Bridges and Tunnels”" at Tashkent State Transport University
ulugbekjuve@mail.ru

Karimova Anora Bakhtiyorovna
PhD, Associate Professor of the Department of “Bridges and Tunnels” at Tashkent State Transport University
tillaboyeva_anora_karimova@mail.ru

Abdullayev Abdurakhim Rovshan ugli
PhD, Associate Professor of the Department of “Bridges and Tunnels” at Tashkent State Transport University
abdurahim.abdullayev.94@mail.ru

Abstract: *This article analyzes the seismic performance of continuous reinforced concrete bridges and overpasses subjected to the strong earthquakes that struck Türkiye in 2023, with particular emphasis on the damage patterns observed in their structural components. The study examines the interaction between bridge piers, superstructures, bearings, and foundations during seismic events, the distribution of seismic loads throughout the structural system, and the factors affecting earthquake resistance. Based on the experience of the 2023 Türkiye earthquakes, including the damage observed at the Nurdağı viaduct, the seismic response characteristics of bridge structures are discussed. Particular attention is given to considering the interaction between soil, foundations, piers, and superstructures; using real earthquake accelerograms in structural analysis; and selecting effective parameters for seismic isolation systems and bridge bearings. The findings provide a basis for developing important scientific and practical recommendations aimed at improving the seismic safety of bridges and overpasses, refining structural analysis methods, and ensuring the reliability of bridge structures under strong earthquake conditions.*

Key words: *continuous reinforced concrete bridge, overpass, earthquake, seismic effects, earthquake resistance, structural damage, bridge pier, superstructure, foundation, seismic isolation, real earthquake records, Nurdağı viaduct*

Молодой специалист
Young specialist
Жас маман
Yosh mutaxassis

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

ХАРАКТЕРИСТИКИ СЕЙСМИЧЕСКОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ НЕПРЕРЫВНЫХ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ МОСТОВ И ЭСТАКАД ПРИ СИЛЬНЫХ ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЯХ И ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ИХ СЕЙСМОСТОЙКОСТИ

Шермухамедов Улугбек Забихуллаевич
DSc, профессор кафедры “Мосты и тоннели” Ташкентского государственного транспортного университета
ulugbekjuve@mail.ru

Каримова Анора Бахтиёровна
PhD, доцент кафедры “Мосты и тоннели” Ташкентского государственного транспортного университета
tillaboyeva_anora_karimova@mail.ru

Абдуллаев Абдурахим Ровшан угли
PhD, доцент кафедры “Мосты и тоннели” Ташкентского государственного транспортного университета
abdurahim.abdullayev.94@mail.ru

Аннотация *В данной статье анализируются сейсмические характеристики непрерывных железобетонных мостов и эстакад, подвергшихся воздействию сильных землетрясений, произошедших в Турции в 2023 году, с особым акцентом на закономерности повреждений, наблюдаемые в их конструктивных компонентах. В исследовании рассматриваются взаимодействие мостовых опор, надстроек, подшипников и фундаментов при сейсмических явлениях, распределение сейсмических нагрузок по всей конструктивной системе и факторы, влияющие на сейсмостойкость. На основе опыта землетрясений 2023 года в Турции, включая повреждения, наблюдаемые на виадуке Нурдаг, обсуждаются сейсмические характеристики мостовых конструкций. Особое внимание уделяется рассмотрению взаимодействия грунта, фундаментов, опор и надстроек; использованию реальных акселерограмм землетрясений в конструктивном анализе; выбору эффективных параметров систем сейсмоизоляции и подшипников мостов. Полученные результаты служат основой для разработки важных научно-практических рекомендаций, направленных на повышение сейсмической безопасности мостов и путепроводов, совершенствование методов структурного анализа и обеспечение надежности мостовых конструкций в условиях сильного землетрясения.*

Ключевые слова *непрерывный железобетонный мост, эстакада, землетрясение, сейсмические эффекты, сейсмостойкость, повреждение конструкции, опора моста, надстройка, фундамент, сейсмоизоляция, реальные записи о землетрясениях, виадук Нурдагы*

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

Kirish

Jahonda bugungi kunda avtomobil yo‘llaridagi ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarning zilzilabardoshligini oshirish, seysmik xavf yuqori bo‘lgan hududlarda yirik ko‘priklarni hisoblash hamda loyihalash usullarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalishda ko‘priklarning konstruktiv elementlarini “grunt – tayanch – tayanch qismi – oraliq qurilma” konsepsiyasi asosida o‘zaro bog‘liq va bir-biriga ta’sir ko‘rsatuvchi yaxlit tizim sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, transport inshootlarida seysmoizolyatsiya texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini asoslash, haqiqiy zilzila yozuvlari asosida uzluksiz temirbeton avtomobil ko‘priklarini seysmik ta’sirlardan himoyalashning samarali usullarini ishlab chiqish hamda seysmik himoyalovchi tayanch qismlarining maqbul parametrlarini aniqlash dolzarb ilmiy vazifalar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, ko‘p tayanchli ko‘prik inshootlarining seysmik ta’sir ostidagi dinamik xususiyatlarini o‘rganish, ularning zilzilabardoshligini baholash mezonlari va hisoblash usullarini takomillashtirish hamda konstruksiyalarning ishonchliligi va ekspluatatsion xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish bugungi kunning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [3, 9].

Zilzila — Yer qobig‘i yoki yuqori mantiyada sodir bo‘ladigan tektonik siljishlar, tog‘ jinslarining yorilishi va uzilishi natijasida yuzaga keluvchi, elastik seysmik to‘lqinlar orqali turli masofalarga tarqaladigan yer osti silkinishlari hamda yer yuzasining tebranishlari jarayonidir [1].

Kuchli zilzilalar ko‘priklarning konstruktiv yaxlitligi va normal ekspluatatsiya holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, ayrim hollarda ularning shikastlanishi yoki butunlay ishdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli avtomobil yo‘llaridagi ko‘priklar va boshqa sun’iy inshootlarning zilzilabardoshligini ta’minlash, seysmik ta’sirlar ostida ularning mustahkamligi va barqarorligini oshirish muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ko‘prik inshootlari o‘zaro bog‘langan ko‘plab konstruktiv elementlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning seysmik xavfsizligini ta’minlashda, ayniqsa, tayanchlar va tayanch qismlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu elementlarning seysmik yuklar ta’siridagi ishlash xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning o‘zaro ta’sirini baholash hamda konstruktiv parametrlarini to‘g‘ri tanlash ko‘priklarning zilzilabardoshligini oshirish va favqulodda vaziyatlarda ishonchli ishlashini ta’minlashga xizmat qiladi [2-3].

Magnitudasi 8,2 ni tashkil etgan va 143 ming kishini halok bo‘lishiga sabab bo‘lgan Yaponiyadagi Tokio (1923y.) zilzilasining keltirgan seysmik zararini baholash mumkin. Zizlilani Tokio sh. va uning atrofiga keltirgan zarari 3 mlrd dollarni tashkil etdi (1923 y. narxlarida). Zilzila va sunami natijasida Yaponiyada avtoyo‘llar 582 joyidan, ko‘priklar esa 32 joyidan shikastlanganligi aniqlandi. Yo‘llarda ko‘plab yoriqlar paydo bo‘lgan, ayrim holatlarda esa yo‘l polotnolari va ko‘priklar butunlay buzilib ketgan [9].

2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, zilzilalar natijasida jami iqtisodiy yo‘qotishlar 1,904 trln. AQSH dollari va suv toshqinlari hamda tropik siklonlardan keyin 3-o‘rinni egallaydi. Zilzilalarning umumiy iqtisodiy yo‘qotishlari taxminan 2 trillion AQSH dollarini tashkil etganligi sababli, zilzilalar natijasida o‘lim darajasi 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra taxminan 4500 kishini tashkil etadi (1-rasm) [9]. Iqtisodiy yo‘qotishlardan tashqari, tabiiy ofatlardan o‘lim darajasi ham juda dolzarbdir (1-rasm).

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651



1-rasm. Eng vayronkor tabiiy ofatlar bo'yicha o'sib boruvchi jami iqtisodiy yo'qotishlar



2-rasm. Tabiiy ofatlardan o'limning o'rtacha darajasi

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zilzilalar natijasida iqtisodiy yo'qotishlar yig'indisi o'sib boruvchi xarakterga ega bo'lib, eng katta sakrashlar 1994-1996-yillar oralig'ida kuzatilgan (Koba zilzilasi, Yaponiya, 1995-yil 17-yanvar, Rixter shkalasi bo'yicha 7,3 magnitudali, qurbonlar soni 6434 kishi, iqtisodiy zarar 102,5 mlrd. AQSH dollari), 2008-2012 yy. (Sichuan zilzilalari, Xitoy, 2008 yil 12 may, Rixter shkalasi bo'yicha 7,9 magnituda, qurbonlar soni 69197 kishi, iqtisodiy zarar 1,37 mln. AQSH dollari; Fukusima zilzilalari, Yaponiya, 2011-yil 11-mart, Rixter shkalasi bo'yicha 9,1 magnitudali, qurbonlar soni 19747 kishi, iqtisodiy zarar 309 mlrd. AQSH dollari) [1]. 2023-yilda kuchli zilzilalarda halok bo'lganlar soni 1-jadvalda keltirilgan.

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

1-jadval

2023-yilda kuchli zilzilalarda halok bo‘lganlar soni

Reyting	Qurbonlar soni	Magnituda	Sana	Zilzila sodir bo‘lgan hudud
1.	59,259	7.8.	6.02.2023 y.	Turkiya, Qahramanmarash
		7.5.		
2.	2,960	6.8.	8.09.2023 y.	Marokash, Al-Hauz
3.	1,482.	6.3.	7.10.2023 y.	Afg‘oniston Hirot
4.	153.	5.7.	3.11.2023 y.	Nepal, Karnali
5.	151.	5.9.	18.12.2023 y.	Xitoy, Gansu
6.	21.	6.5.	21.03.2023 y.	Afg‘oniston, Badaxshon
7.	18.	6.8.	18.03.2023 y.	Ekvador, Guayas
8.	13.	6.3.	20.02.2023 y.	Turkiya, Hatay
9.	11.	6.7.	17.11.2023	Filippin, Sokksargen

2023-yilda zilzilalar oqibatida 64,1 mingdan ortiq odam halok bo‘ldi, bu 2010-yildan beri eng yuqori ko‘rsatkichdir.

2023-yil 6-fevralda Turkiyaning janubi-sharqiy hududlarida taxminan to‘qqiz soatlik vaqt oralig‘ida ikkita kuchli zilzila sodir bo‘ldi. Birinchi zilzilaning magnitudasi 7,8 ni tashkil etib, uning epitsentri Gaziantep viloyatining Shehitkamil hududi yaqinida, ikkinchi zilzila esa 7,5 magnituda bilan Qahramonmarash viloyatining Ekinözü hududida qayd etildi.

3-rasm. Turkiyaning Qahramanmarash viloyatidagi ro‘y bergan zilzilaning ta’sir hududi

Ushbu kuchli seysmik hodisalardan keyin hududda magnitudasi 6,7 gacha yetgan takroriy silkinishlar ham kuzatildi. Mazkur zilzilalar katta hududda sezilarli tebranishlarni yuzaga keltirib, binolar, transport infratuzilmasi va muhandislik inshootlarining seysmik mustahkamligini baholash masalasini dolzarb qilib qo‘ydi [4] (3 va 4-rasm).

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

a b.



4-rasm. Qahramonmarashdagi 7,5 magnitudali (a) va Gaziantepadagi 7,8 magnitudali (b) zilzilalar seysmogrammalari

Xalqaro tibbiyot korpusining 2023-yil 8-martdagi vaziyat hisobotida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil 6-fevralda Turkiya va Suriyada sodir bo‘lgan kuchli zilzilalar oqibatida halok bo‘lganlar soni 50 ming kishidan oshgan. Jumladan, Turkiyada 45 968 nafar, Suriyada esa 7 259 nafar inson hayotdan ko‘z yumgan. Ushbu fojiali hodisa keng ko‘lamli vayronagarchiliklarga sabab bo‘lib, aholi turar joylari bilan bir qatorda transport infratuzilmasi va muhandislik inshootlarining seysmik xavfsizligini ta’minlash masalasi naqadar muhim ekanini yana bir bor namoyon etdi [4, 9].

Bundan tashqari, 2023-yil 8-sentabr kuni Marokashning Marrakesh–Safi mintaqasida magnitudasi 6,8 ga teng bo‘lgan kuchli zilzila sodir bo‘ldi. Zilzila epitsentri Marrakesh shahridan taxminan 72 km janubi-g‘arbda joylashgan bo‘lib, yer silkinishlari katta hududda vayronagarchiliklarni keltirib chiqardi (5-rasm). Tabiiy ofat natijasida tarixiy obidalar va turli infratuzilma obyektlari, jumladan, binolar hamda transport tizimining ayrim elementlari zarar ko‘rdi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, zilzila oqibatida 2 946 kishi halok bo‘lgan, iqtisodiy zarar esa taxminan 12 milliard AQSH dollariga baholangan. Mazkur hodisa kuchli seysmik ta’sirlar sharoitida muhandislik inshootlarining konstruktiv mustahkamligi, barqarorligi va ishonchliligini ta’minlash zarurligini yana bir bor ko‘rsatdi.



5-rasm. Marokashning Marrakesh - Safi mintaqasidagi ro‘y bergan zilzilaning ta’sir



6-rasm. Xitoyning Gansu provinsiyasidagi ro‘y bergan zilzilaning ta’sir hududi

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

Shuningdek, 2023-yil 18-dekabr kuni Xitoy Xalq Respublikasining Gansu provinsiyasidagi Jishishan (Jishishan Bao'an, Dongxiang va Salar muxtor okrugi) hududida magnitudasi turli manbalarda 5,9–6,2 oralig'ida qayd etilgan zilzila sodir bo'ldi. Asosiy seysmik hodisadan so'ng magnitudasi 3,0 ga yetgan to'qqizta takroriy silkinish (aftershok) kuzatildi. Ushbu zilzila mintaqadagi bino va muhandislik inshootlariga seysmik ta'sir ko'rsatib, hududning tabiiy ofatlarga tayyorgarligi hamda qurilish konstruksiyalarining zilzilabardoshligini ta'minlash masalalariga e'tiborni kuchaytirdi. Mazkur hodisa seysmik xavf mavjud hududlarda transport inshootlarini loyihalash, hisoblash va ekspluatatsiya qilishda zilzila ta'sirlarini chuqur tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi (6-rasm). Zilzila Xitoyning Gansu va Sinxay provinsiyalari chegarasida joylashgan, aholi zich istiqomat qiladigan hududlarda jiddiy vayronagarchiliklarni keltirib chiqardi. Tabiiy ofat oqibatida 150 nafardan ortiq kishi halok bo'ldi, ko'plab bino va inshootlar zarar ko'rdi. Ushbu hodisa 2014-yilda Yunnan provinsiyasida yuz bergan Ludian zilzilasidan keyin Xitoyda qayd etilgan eng ko'p qurbonlarga sabab bo'lgan zilzilalardan biri sifatida baholandi. Mazkur fojia seysmik xavf yuqori bo'lgan hududlarda nafaqat turar joy binolari, balki ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va boshqa muhim transport inshootlarining zilzilabardoshligini ta'minlash, ularning konstruktiv ishonchliligini oshirish hamda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan muhandislik yechimlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi [5].

2024-yil 1-yanvar kuni Yaponiyaning Ishikava prefekturasida, Noto yarimorolida magnitudasi 7,6 ga teng bo'lgan kuchli zilzila sodir bo'ldi. Zilzila, ayniqsa, Vadzima va Sudzu shaharlarida katta vayronagarchiliklarni keltirib chiqardi. Tabiiy ofat oqibatida ko'plab bino va inshootlar shikastlandi, transport infratuzilmasi faoliyatida uzilishlar yuzaga keldi hamda qurbonlar soni 200 nafardan oshdi. Ushbu zilzila seysmik xavf yuqori bo'lgan hududlarda muhandislik inshootlarining zilzilabardoshligini ta'minlash, konstruktiv elementlarning dinamik ta'sirlarga chidamliligini oshirish va transport aloqalarining uzluksizligini saqlash masalalarining naqadar muhimligini yana bir bor namoyon etdi (7-rasm) [6].

2025-yil 28-mart kuni Myanmaning Sikayn hududida moment magnitudasi (Mw) 7,7 ga teng bo'lgan kuchli zilzila sodir bo'ldi. Mazkur seysmik hodisa keng hududda kuchli yer tebranishlarini yuzaga keltirib, bino va inshootlar hamda transport infratuzilmasiga jiddiy xavf tug'dirdi. Ushbu zilzila seysmik faol mintaqalarda joylashgan muhandislik inshootlarining, xususan, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarning zilzilabardoshligini ta'minlash, ularning dinamik yuklar ta'siridagi xatti-harakatlarini baholash hamda konstruktiv himoya choralarini takomillashtirish zarurligini yana bir bor ta'kidladi. (8-rasm). Mazkur zilzilaning intensivligi Merkalli shkalasi bo'yicha IX darajaga yetdi. Kuchli yer silkinishlari Myanma va qo'shni Tailand hududlarida katta vayronagarchiliklarga sabab bo'lib, binolar, muhandislik inshootlari va transport infratuzilmasiga jiddiy zarar yetkazdi. Asosiy zilziladan keyin 169 ta takroriy seysmik silkinish (aftershok) qayd etildi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, tabiiy ofat oqibatida Myanmada kamida 5 300 kishi, Tailandda esa 36 kishi halok bo'lgan. Ushbu hodisa kuchli zilzilalar sharoitida ko'priklar va boshqa transport inshootlarining konstruktiv mustahkamligini ta'minlash, seysmik ta'sirlarni hisoblash usullarini takomillashtirish hamda infratuzilmaning favqulodda vaziyatlarga chidamliligini oshirish zarurligini yana bir bor ko'rsatdi. [7-9].

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651



7-rasm. Yaponiyaning Ishikava prefekturasidagi ro‘y bergan zilzilaning ta’sir hududi



8-rasm. Myanmaning Sikayn okrugidagi ro‘y bergan zilzilaning ta’sir hududi

2024-yil 1-yanvar kuni Yaponiyaning Ishikava prefekturasida, Noto yarimorolida magnitudasi 7,6 ga teng bo‘lgan kuchli zilzila sodir bo‘ldi. Zilzila, ayniqsa, Vadzima va Sudzu shaharlarida katta vayronagarchiliklarni keltirib chiqardi. Tabiiy ofat oqibatida ko‘plab bino va inshootlar shikastlandi, transport infratuzilmasi faoliyatida uzilishlar yuzaga keldi hamda qurbonlar soni 200 nafardan oshdi. Ushbu zilzila seysmik xavf yuqori bo‘lgan hududlarda muhandislik inshootlarining zilzilabardoshligini ta’minlash, konstruktiv elementlarning dinamik ta’sirlarga chidamliligini oshirish va transport aloqalarining uzluksizligini saqlash masalalarining naqadar muhimligini yana bir bor namoyon etdi (7-rasm) [6].

2025-yil 28-mart kuni Myanmaning Sikayn hududida moment magnitudasi (Mw) 7,7 ga teng bo‘lgan kuchli zilzila sodir bo‘ldi. Mazkur seysmik hodisa keng hududda kuchli yer tebranishlarini yuzaga keltirib, bino va inshootlar hamda transport infratuzilmasiga jiddiy xavf tug‘dirdi. Ushbu zilzila seysmik faol mintaqalarda joylashgan muhandislik inshootlarining, xususan, ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarning zilzilabardoshligini ta’minlash, ularning dinamik yuklar ta’siridagi xatti-harakatlarini baholash hamda konstruktiv himoya choralarini takomillashtirish zarurligini yana bir bor ta’kidladi. (8-rasm). Mazkur zilzilaning intensivligi Merkalli shkalasi bo‘yicha IX darajaga yetdi. Kuchli yer silkinishlari Myanma va qo‘shni Tailand hududlarida katta vayronagarchiliklarga sabab bo‘lib, binolar, muhandislik inshootlari va transport infratuzilmasiga jiddiy zarar yetkazdi. Asosiy zilziladan keyin 169 ta takroriy seysmik silkinish (aftershok) qayd etildi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, tabiiy ofat oqibatida Myanmada kamida 5 300 kishi, Tailandda esa 36 kishi halok bo‘lgan. Ushbu hodisa kuchli zilzilalar sharoitida ko‘priklar va boshqa transport inshootlarining konstruktiv mustahkamligini ta’minlash, seysmik ta’sirlarni hisoblash usullarini takomillashtirish hamda infratuzilmaning favqulodda vaziyatlarga chidamliligini oshirish zarurligini yana bir bor ko‘rsatdi. [7-9].

Kuchli zilzilalar natijasida transport infratuzilmasi obyektlari, jumladan, ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarning konstruktiv elementlari turli darajada shikastlanishi mumkin. Xususan, 2023-yil 6-fevralda Turkiyada sodir bo‘lgan Qahramonmarash zilzilalari avtomobil yo‘llari

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

infratuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ayrim ko‘prik inshootlarida shikastlanishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bunday holatlar ko‘priklarning seysmik yuklar ta’siridagi ishlash xususiyatlarini, konstruktiv elementlarining mustahkamligini hamda tayanch va tayanch qismlarining zilzila vaqtida tutgan o‘rnini chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu munosabat bilan, mazkur maqolada Turkiyada sodir bo‘lgan zilzilalar ta’sirida shikastlangan Nurdağı viaduki va Asi ko‘prigining texnik holati hamda konstruktiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu inshootlarni o‘rganish orqali seysmik ta’sirlarning ko‘prik konstruksiyalariga ta’sir mexanizmlarini aniqlash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shikastlanish sabablarini baholash va kelgusida shunga o‘xshash transport inshootlarining zilzilabardoshligini oshirishga qaratilgan muhandislik yechimlarini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Nurdağı viaduki — Turkiyaning janubiy qismidagi past tog‘li hududda joylashgan yirik ko‘prik inshooti bo‘lib, uning konstruksiyasida diametri 3 m va balandligi taxminan 24 m bo‘lgan temirbeton tayanchlardan foydalanilgan. Viaduk ikkita mustaqil, har biri beshta oraliqdan tashkil topgan ko‘prik konstruksiyasidan iborat. Inshootning yuk ko‘taruvchi tizimida oldindan zo‘riqtirilgan temirbeton elementlar hamda eng uzun oraliqda po‘lat oraliq qurilma konstruksiyasi qo‘llanilgan.

Mazkur viaduk 2023-yil 6-fevralda Turkiyada sodir bo‘lgan, moment magnitudasi Mw 7,8 ga teng zilzila epitsentridan 29,1 km masofada joylashgan. Shunga qaramay, inshoot zilzila vaqtida yuzaga kelgan yer yorig‘i chizig‘idan 161 m dan kam masofada joylashgani uning seysmik ta’sirlarga duchor bo‘lish xavfini yanada oshirgan. Bunday sharoitda gruntning siljishi, yer yuzasidagi deformatsiyalar hamda kuchli seysmik tebranishlarning ko‘prik tayanchlari va oraliq qurilmalariga ta’sirini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Nurdağı viaduki misolida yirik ko‘priklarning zilzilabardoshligini baholashda nafaqat epitsentrgacha bo‘lgan masofa, balki faol tektonik yoriqlarga nisbatan joylashuvi va grunt sharoitlarini ham hisobga olish zarurligi namoyon bo‘ladi [8].

Katta konsolli temir-beton tayanchlardan birining ko‘tarilish yo‘lida kutilmagan plastik deformatsiyalar qayd etildi (9 – 12- rasmlar). Nazariy hisob-kitoblarga ko‘ra, ko‘prik tayanchida eng katta eguvchi moment, odatda, uning poydevor bilan tutashgan quyi qismida yuzaga kelishi kutiladi. Biroq, mazkur holatda deformatsiyaning tayanchning yuqoriroq qismida kuzatilgani alohida e’tiborga loyiqdir. O‘tkazilgan tahlillar shikastlanishlar, asosan, ko‘ndalang yo‘nalishdagi egilish ta’sirida yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Tayanchning ikki tomonida beton qatlamining sinishi va ko‘chishi, bir tomonda vertikal armaturalarning egilishi, shuningdek, ko‘ndalang armaturalarning sezilarli deformatsiyalanishi hamda o‘z vazifasini yo‘qotishi qayd etilgan. Bunday shikastlanishlar tayanchga ko‘ndalang yo‘nalishda ta’sir etgan seysmik yuklar natijasida ikki yo‘nalishda ham katta eguvchi momentlar hosil bo‘lganidan dalolat beradi.

9-rasm. Nurdagi viadukining konstruktiv elementlari ko‘rinishlari: plastik deformatsiyalangan temir-beton tayanch va yig‘ma beton hamda po‘lat oraliq qurilmalar

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

10-rasm. Nurdagi viadukining diametri 3 m bo‘lgan temir-beton tayanchida kuzatilgan plastik deformatsiyalar

11-rasm. Nurdag‘i viadukidagi chetki tayanchda kuzatilgan shikastlanishlar

12-rasm. Nurdag‘i viadukining diametri 3 m bo‘lgan temir-beton tayanchining yaqinlashuv yo‘li (ko‘tarma) bilan birikkan chetki zonasida kuzatilgan plastik deformatsiya turlari

Bundan tashqari, poydevor elementlarida ham shikastlanishlar aniqlangan. Bu holat kuchli zilzila vaqtida grunt, poydevor va tayanch konstruksiyalari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirning natijasi bo‘lishi mumkin. Shu sababli ko‘priklarning seysmik mustahkamligini baholashda faqat tayanchlarning yuqori qismlaridagi deformatsiyalarni emas, balki poydevorlarning ishlash xususiyatlari, armaturalarning holati va butun konstruktiv tizimning o‘zaro ta’sirini ham kompleks ravishda hisobga olish zarur [9].

Ko‘priklarni zilzilabardosh qilib loyihalash va qurish bo‘yicha xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, kuchli seysmik ta’sirlar sharoitida konstruksiyalarning ishonchli ishlashini ta’minlash bilan bog‘liq qator muammolar hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Amaldagi me’yoriy hujjatlarda ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarning seysmik ta’sirlarga chidamliligini hisoblash hamda ularni antiseysmik kuchaytirish bo‘yicha belgilangan usullar barcha murakkab seysmik vaziyatlarda

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

konstruksiyalarning shikastlanmasdan ishlashini to‘liq kafolatlay olmaydi. Shu bois hisoblash usullarini takomillashtirish, haqiqiy zilzila yozuvlari asosida dinamik tahlillarni amalga oshirish va ko‘prikning barcha konstruktiv elementlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni hisobga olish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

2023-yil 6-fevralda Turkiyada sodir bo‘lgan kuchli zilzilalar oqibatlari ushbu masalalarning amaliy ahamiyatini yaqqol namoyon etdi. Zilzilalar natijasida ko‘plab ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarda turli darajadagi shikastlanishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, ularning qulash holatlari turar joy binolariga nisbatan kamroq qayd etildi. Ayrim inshootlarda, jumladan, ko‘rib chiqilgan ko‘prik misolida, kuchli tebranishlar ta’sirida oraliq qurilmaning tayanch qismidan siljishi yoki ajralishi kuzatilgan, biroq ushbu holat bo‘yicha insonlar jabrlangani qayd etilmagan. Bunday shikastlanishlar ko‘priklarning seysmik xavfsizligini ta’minlashda oraliq qurilmaning tayanchlarda ishonchli saqlanishi, tayanch qismlarining siljishga qarshi xususiyatlari va konstruksiyaning umumiy dinamik javobi muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Turkiya tajribasi shuni anglatadiki, ko‘priklarni zamonaviy muhandislik talablari asosida loyihalash, sifatli qurilish materiallaridan foydalanish, konstruktiv yechimlarni to‘g‘ri tanlash va qurilish jarayonida me’yoriy talablarning bajarilishini ta’minlash kuchli zilzilalar oqibatlarini kamaytirishda muhim omillardir. Shu bilan birga, hatto yuqori muhandislik standartlari asosida qurilgan inshootlarda ham seysmik ta’sirlar natijasida ayrim shikastlanishlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ko‘priklarning zilzilabardoshligini faqat konstruksiyaning mustahkamligi bilan emas, balki uning deformatsiyalanish qobiliyati, tayanch qismlarining ishlash xususiyatlari, poydevor va grunt bilan o‘zaro ta’siri hamda zilziladan keyingi ekspluatatsion yaroqliligi bilan birgalikda baholash zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Turkiyada sodir bo‘lgan kuchli zilzilalar tajribasi uzluksiz temirbeton ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarning seysmik holatini chuqur o‘rganish, ularning zaif konstruktiv elementlarini aniqlash hamda zilzilabardoshlikni oshirishga qaratilgan samarali muhandislik yechimlarini ishlab chiqish zarurligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, “grunt – tayanch – tayanch qismi – oraliq qurilma” tizimining yaxlit ishlashini hisobga olgan holda hisoblash usullarini takomillashtirish, seysmoizolyatsiya texnologiyalarini qo‘llash va tayanch qismlarining maqbul parametrlarini asoslash kelgusidagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar ko‘priklarning seysmik ishonchliligini oshirish, transport qatnovining uzluksizligini saqlash va kuchli zilzilalar oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy hamda ijtimoiy talafotlarni kamaytirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шермухамедов У.З. Гашение продольных сейсмических колебаний опор балочных мостов с сейсмоизолирующими опорными частями: монография. – Ташкент: Complex Print, 2020. – 260 с.

2. Шермухамедов, У.З. Проектирование сейсмостойких сооружений для условий Узбекистана // Сборник материалов международной конференции “Новые технологии в мостостроении”. Санкт-Петербург. 2010. – 95-99 с.

3. Karimova A.B. Avtomobil yo‘llaridagi uzluksiz temirbeton ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarning zilzilabardoshligi. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. Toshkent. – 118 b.

4. Varolgüneş S. A bibliometric analysis of the 2023 Kahramanmaraş Earthquakes: trends, gaps, and policy implications // Natural Hazards. – 2025. – Vol. 121. – P. 12461–12485. – DOI: 10.1007/s11069-025-07305-0.

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

5. Yang W., Ouyang C., Xiang W., An H. Mechanism analysis and numerical simulation of the Zhongchuan loess earthflow induced by the MS 6.2 Jishishan earthquake in Gansu, China // Engineering Geology. – 2025. – Vol. 344. – Art. 107828. – ISSN 0013-7952. – DOI: 10.1016/j.enggeo.2024.107828.

6. Yang D., Minami M., Fahim A.U., Kawashita T. A Timeline-Based Study of the Early Reconstruction Phases in Ishikawa Prefecture Following the 2024 Noto Peninsula Earthquake // Sustainability. – 2024. – Vol. 16, No. 24. – P. 10838. – DOI: 10.3390/su162410838.

7. Xu X., Kang W., Wang T. et al. The Mw7.7 Myanmar earthquake: a continental longest surface-rupturing supershear cascading event // npj Natural Hazards. – 2025. – Vol. 2. – Art. 73. – DOI: 10.1038/s44304-025-00125-z.

8. Dowell R.K. Observations of the bridge damage caused by the Mw 7.8 Turkey (Turkiye) Earthquake of February 6, 2023 // Structure Magazine. – 2023. – October issue.

9. Abdullayev A.R. Seysmik ta’sirlarni hisobga olgan holda avtomobil yo‘llaridagi uzluksiz monolit ko‘prik inshootlarining konstruktiv parametrlarini tanlash. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. Toshkent. – 131 b.

Молодой специалист
Young specialist
Жас маман
Yosh mutaxassis

Volume 5 | Issue 52-53 |
August-September 2026
ISSN: 2791-3651

СОДЕРЖАНИЕ

Yo‘ldoshev A.
Andijon viloyati bir sathdagi temir yo‘l kesishmalarini rivojlantirish strategiyasi: xavf ustuvorligi va avtomatik to‘sish qurilmalarining texnik-iqtisodiy asoslanishi …… 3

Baxritdinov U.U.
O‘zbekiston tashqi savdo temir yo‘l marshrutlarining xarajat va vaqt samaradorligini qiyosiy baholash: umumlashgan transport xarajati yondashuvi……. 12

Tursunov .T., Omonova K.
Prospects for the application of Ti–Cr, TiN and TiB_2 systems for strengthening superhard materials……. 20

Bakhteev E., Urazbaev T., Rakhimov U., Ergasheva V.
The effect of particle size distribution, moisture content and temperature on thermal shock and cracking of iron ore pellets during drying……... 25

Shermuxamedov U., Karimova A., Abdullayev A.
Kuchli zilzilalar sharoitida uzluksiz temirbeton ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarning seysmik shikastlanish xususiyatlari va zilzilabardoshligini takomillashtirish masalalari…… 33

ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ **«МОЛОДОЙ СПЕЦИАЛИСТ»**
Свидетельство о постановке на учет периодического печатного издания, информационного агентства и сетевого издания Эл № KZ26VPY00048061 от 15 апреля 2022 г.

Редакционная коллегия:

Главный редактор:
Суюнбаев Ш.М., доктор технических наук, профессор
Члены редколлегии:
Махаматалиев И.М., доктор технических наук, профессор
Цой В.М., доктор технических наук, профессор
Примова А.Х., доктор технических наук, профессор
Машарипов М.Н., доктор технических наук (DSc), профессор
Зайниддинов Н.С., доктор технических наук (DSc), доцент
Адбазимов Ш.Х., доктор технических наук, доцент
Бердимуратов М.К., кандидат физико-математических наук, профессор
Телебаев Г.Т., доктор философских наук, профессор
Сауханов Ж.К., доктор экономических наук, профессор
Тажигулова Г.О., доктор педагогических наук, доцент
Кобулов Ж.Р., кандидат технических наук, профессор
Ильясов А.Т., доктор технических наук (DSc), профессор
Мухаммадиев Н.Р., доктор технических наук (DSc), доцент
Расулов М.Х., кандидат технических наук, профессор
Худайберганов С.К., кандидат технических наук, профессор
Болтаев С.Т., кандидат технических наук, профессор
Якубов М., кандидат технических наук, профессор
Бутунов Д.Б., кандидат технических наук (PhD), профессор
Тургунбаев У.Ж., кандидат технических наук, доцент
Адилова Н.Д., кандидат технических наук (PhD)
Амандиков М.А., кандидат технических наук, доцент
Асаматдинов М.О., кандидат технических наук (PhD), доцент
Жумаев Ш.Б., кандидат технических наук (PhD, доцент
Кидирбаев Б.Ю., кандидат технических наук (PhD), доцент
Хусенов У.У., кандидат технических наук (PhD), доцент
Абдуллаев Ж.Я., кандидат технических наук (PhD)
Буриев Ш.Х., кандидат технических наук (PhD), доцент
Тургаев Ж.А., кандидат технических наук (PhD), доцент
Насиров И.З., кандидат технических наук (PhD), доцент
Сабуров Х.М., кандидат технических наук (PhD), доцент
Пурханатдинов А.П., кандидат технических наук (PhD)
Пахратдинов А.А., кандидат технических наук (PhD)
Адилова Н.Д., кандидат технических наук (PhD)
Тургунбаева Ж.Р., кандидат технических наук (PhD)
Юсупов А.К., кандидат технических наук (PhD)
Абдукадиров С.А., кандидат технических наук (PhD)
Каримова А.Б., кандидат технических наук (PhD)
Бердибаев М.Ж., кандидат технических наук (PhD)
Зокиров Ф.З., кандидат технических наук (PhD)
Уразбаев Т.Т., кандидат технических наук (PhD)
Турсунов Т.М., кандидат технических наук (PhD)
Нафасов Ж.Х., кандидат технических наук (PhD)
Бахтеев Э.М., кандидат технических наук (PhD)
Лесов А.Т., кандидат технических наук (PhD)
Косимова К.А., кандидат технических наук (PhD)
Рахмонов Б.Б., кандидат технических наук (PhD)
Жумабаев Д.М., кандидат технических наук (PhD)
Наженов Д.Я., кандидат технических наук (PhD)
Каюмов Ш.Ш., кандидат технических наук (PhD)
Рахмонбердиев А.А., кандидат технических наук (PhD)
Кенжалиев М.К., кандидат технических наук (PhD)
Кутлумуратов Ж.Дж., кандидат технических наук (PhD)
Кишанов Р.У., кандидат технических наук (PhD)
Рахимов У.Т., кандидат технических наук (PhD)
Абдусаттаров А.А., кандидат технических наук (PhD)
Сейдаметов С.Р., кандидат технических наук (PhD)
Шнекеев Ж.К., кандидат архитектурных наук (PhD), доцент
Мырзатаев С.М., кандидат экономических наук (PhD)
Маденова Э.Н. кандидат экономических наук (PhD), доцент
Ешниязов Р.Н., кандидат экономических наук (PhD), доцент
Джуманова А.Б., кандидат экономических наук, доцент
Омонов Б.Н., кандидат экономических наук, доцент
Закимов М.А. кандидат экономических наук (PhD)
Алланазаров У.З., кандидат экономических наук (PhD)
Раимов Г.Ф., кандидат педагогических наук, доцент
Тилаев Э.Р., кандидат исторических наук, доцент
Суюнова З.С., кандидат сельскохозяйственных наук
Яхяев Б.С., кандидат сельскохозяйственных наук

Отв. ред. Ш.М. Суюнбаев

Выпуск №5 (52-53) (август-сентябрь, 2026). Сайт: https://mspes.ru
ИП «Исакова У.М.». Республика Казахстан, г. Нур-Султан, 2026